

«Inno Week-2019» innovatsiyalar forumi

“Bugungi kunda dunyo miqyosida shafqatsiz raqobat tobora keskin tus olmoqda. Bunday murakkab sharoitda zamonaviy ilm-fan va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish bo'yicha biz uzluksiz ish olib borishimiz kerak.”

Shavkat Mirziyoyev

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan 2019 yil 29-31 oktyabr kunlari «UZEXPOMARKAZ» milliy ko'rgazma majmuasida InnoWeyek.uz innovatsion g'oyalar haftaligini o'tkazilmoqda. Bugun 29 oktyabr kuni bu g'oyalar namoyishining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Ushbu tadbir noyob maydonchaga aylandi, unda mahalliy va xorijiy tadqiqot va innovatsion markazlar, investitsiya fondlari, texnologiya agentliklari, texnoparklar va biznes-inkubatorlarning vakillari ishtirok etmoqda.

Ushbu ko'rgazmada Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining professor-o'qituvchilari va iqtidorli talabalari o'zlarining yangi ishlanmalari bilan ishtirok etdi.

- “Rotor-diskli don maydalagich” RDD-100 mualliflar: dots. D.A.Alijanov, katta o'qituvchi Sh.X. Abduraxmonov.
- “Qishloq aholi punktlarida organik chiqindilaridan yuqori sifatli o'g'it va biogaz olish qurilmasini joriy etish” mualliflar: Sh.Imomov – t.f.d., professor, K.Usmonov, M.Sultonov, Z.Mamadaliyeva, N.Imomova, T.Qayumov – ilmiy izlanuvchilar.
- “Gidroelektrometr qurilmasi” mualliflar: Normurodov J., Toshmurodov Yo.
- “Past bosimli suv oqimlari uchun energiya samarador mikrogidroelektrostansiya” muallif: PhD. Qodirov D.B.
- “Meva va uzumga sharbat olishdan oldin elektr ishlov berish qurilmasi” mualliflar: Radjabov A., N.Eshpulatov
- “Namlik va haroratni o'lchash qurilmasi” mualliflar: Karimova D., Toshmuradov Yo.
- “Energiya va resurstejamkor kartoshka ekish mashinasi” mualliflar: Maxmudov X., Duskulov R.
- “Quduqlarda suv satxini o'lchash qurilmasi” mualliflar: Sh.Xamrayeva, Yo.Toshmurodov.



Ishtirokchilarimiz o'zlarining ishlanmalarini namoyish etish davomida ularga qiziqish bildirgan mehmonlarga to'liq ma'lumotlar berib, savollariga batafsil javob berdilar va kelajakdagi hamkorlik ishlari borasida ilk qadamlarini qo'yishdi.

Ko'rgazmaning asosiy maqsadi - yangi mahalliy va xorijiy texnologiyalarni namoyish etish, aholi turmush darajasini oshirish va eng yangi texnologiyalarni almashish orqali mamlakat iqtisodiyotiga foydali bo'lgan yangi investitsiya imkoniyatlarini jalb qilish.

Ko'rgazma ishtirokchilari muzokaralarda ishtirok etishlari va o'zaro manfaatli bitimlar tuzishlari mumkin. Ko'rgazmada mahalliy va xorijiy kabi barcha sohalaridagi eng innovatsion mahsulotlar, innovatsion loyihalar, prototiplar yoki biznes uchun modellar namoyish etilmoqda.

Ko'rgazma 30-31 oktyabr kunlari ham davom etadi. Barcha qiziquvchilarni taklif etib qolamiz!



Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish bo'limi xodimi D. Akbarov axboroti
Institut matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov